

**O'G'IL BOLALAR KIYIMLARINI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNIK TAKLIF VA  
BOLALAR KIYIM TURLARI TAHLILI**

Nigora Umarova

Farg'on'a viloyati Oltiariq tumani 2-sون kasb-hunar maktabi I.C.H.T.U.

+998911232559 ziyodakenjayeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollar garderobidan keng joy olgan loyihalanayotga ayollar yubkasi uchun zamonaviy moda yo'nalishi tahlili yoritilgan

**Kalit so'zlar:** Mato, funksiya, yubka, qulayli, zamonaviy moda, garderob, ayollar yubkasi.

**Annotation:** This article covers an analysis of the modern fashion direction for a women's skirt on the project, which takes a wide place in the women's wardrobe

**Keywords:** Fabric, function, skirt, comfortable, stylish fashion, wardrobe, women's skirt.

Kiyimni konstruktsiyalash jarayonini takomillashtirish hozirgi vaqtida tikuvchilik korxonalari oldida turgan juda muhim masalalardan biridir.

Ilgarilari kiyimni konstruktsiyalash deganda uning detallari chizmasini chizish tushunilardi. Kiyim-kechak ko'plab ishlab chiqarilishi va ilmiy tadqiq etishlari natijasida konstruktsiyalash jarayonining mohiyati va mazmuni to'g'risidagi fikrlar o'zgardi.

Kiyimning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalash ishlarining birinchi bosqichida texnik topshiriq ishlab chiqiladi. Topshiriqda kiyimning asosiy vazifasi aks ettirilishi bilan birga, sifat ko'rsatkichlari berilishi, konstruktsiyaga oid hujjatni ishlab chiqish eytaplari, uning tarkibiy qismlari, shuningdek, kiyimga qo'yildigan maxsus talablar aks ettirilgan bo'lishil ozim.

Ikkinci bosqichda texnik takliflar ishlab chiqiladi: texnik takliflar bir xildagi yoki o'xshash vazifani bajaradigan kiyim analoglar tahliliga asoslanib yangi kiyimlar yechimining mumkin bo'lgan variantlarini tayyorlashni o'z ichiga oladi. Eng yuksak sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan model-analoglarning etalon qatorini tuzish, texnik takliflar tayyorlash, seriyaga kiradigan modellarning konstruktiv o'xshashligini (boshqacha aytganda, ishlarning, g'oyaning o'ziga xosligini hamda modellarning raqobatga qodirligini ko'rsatib beradigan elementlarini) tekshirish yuzasidan tak-liflari shlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda eskiz loyiha tayyorlanadi: eskiz loyiha kiyimning tuzilishi va asosiy parametrlari to'g'risida umumiylasavvur to'g'diradigan printsiplial konstruktiv yechimni o'z ichiga oladi. Yangi model-larning eskiz tasavvurlarini chiziqlar yordamida ko'rsatish formasi hozircha to'liq o'rganilgan emas.

Loyihalashishlarining ortinchi bosqichida kiyimning texnik loyihasi ishlab chiqiladi. Texnik loyiha konstruktorlik hujjatlarining majmui bo'lib, loyihalangan kiyimga oid malumotlarni o'z ichiga oladi. Asosiy detallar (kiyimning beldan yuqorigi qismining oldi va orqasi, yenglar va yoqalar)ning chizmalari, shuningdek, loyihalanadigan kiyimning tuzilishini belgilab beradigan asosiy konstruktiv uzellarning texnologik kartalari shular jumlasidandir.



Beshinchchi bosqichda ish (konstruktorlik) hujjatlari ishlab chiqiladi. Hozirgi vaqtida bu ish andazalar komplekti ilova qilingan tex-nik ta'rifni rasmiylashtirishdan iborat bo'lmoqda.

Bolalar modasi, palto, plashch, trenchkot, kurtka, bomber, shuba, balero, borsovka, tolstovka, pidjak, jemper, nimcha. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to mактабгача tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Istiqlol tufayli bugungi kunda nafaqat Respublikamizda, balki chet ellarda ham xaridorgir bo'layotgan o'zbek liboslari o'ziga xos ko'rinish kasb etmoqda. Jahon andozalariga mos ravishda ishlab chiqarilayotgan bunday mahsulotlarga talab kundan-kunga ortib bormoqda. Ishlab chiqarish mobaynida qiz bolalar kiyimi uchun alohida, o'g'il bolalar kiyimi uchun esa alohida bezak elementlaridan foydalaniladi. Bunda bolaning zerikib qolmasligi uchun kontrast ranglardan foydalanishga, kiyimning imkoniyat darajasida ular uchun qiziqarli bo'lishiga va ularning dunyoqarashiga mos rasmlarni tanlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Uch yoshli bolaning dunyoqarashi keng bo'ladi. Uni tabiat bilan bog'liq rasmlar qiziqtiradi va bola ko'proq yorqin ranglarga talpinadi. Ularga libos tikayotgan korxona chevarlari ko'proq matolarning sariq, qizil, yashil kabi yorqin ranglilarini tanlashadi. Qiz bolalar ko'proq mato rangiga va guliga e'tibor berishadi. Shu bois, ularning liboslarida ko'proq gul, kapalak, daraxt, quyosh rasmlarini, o'g'il bolalar kiyimlarida esa futbol to'pi, mashina yoki turli hayvonlarning, multfilm qahramonlarini tasvirlovchi rasmlar qo'yib tikish ayni paytda dolzarb sanaladi. Bunda bolaning yoshiga qarab kichkina yoki kattaroq rasm tanlanadi.

Bolalar modasi ham kattalarnikidan qolishmaydi. Shu sababli ham, jahonning mashhur dizaynerlari, turli uslub va ranglar uyg'unlashuvini sinab ko'rishni taklif qilishmoqda. Kattalarnikiga xos jiddiylik, oddiylik bola kiyimlarida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu mavsumda ikki qarama-qarshi holatdagi tendensiylar va ranglar uyg'unligini ko'rishimiz mum kin. Bir tomondan bolalar libosida qora, oq, kulrang ranglardan foydalanish keng ommalashdi va ustunlikni qo'lga oldi. Bu esa, bolalarning yorqin ranglar va qo'shimcha bezak, detallarga burkangan moda olamida butunlay yangi burilish yasadi.

Bolalar kiyimlaridan namuna ayni paytda bolalar garderobi kattalarnikdan also qolishmaydi, bugungi kunda ularning garderobida ichki, ustki, bel va bosh kiyimlarning bir necha variantlarini topish mumkin. Bolalar garderobidagi ust kiyimlar: palto, plashch, trenchkot, kurtka, bomber, shuba, balero, borsovka, tolstovka, pidjak, jemper, nimcha va chopondan iborat.

Bolalar ust kiyimlari: trenchkot, plashch, kurtka. Bolalar garderobida kundalik va bashang ko'yak, bluzka, kofta, tunika, futfolkalar ham muhim joy olgan.

Bel kiyimlari jumlasiga esa yubka, shim, shorti, kapri, lozim, lasina, gomaj, legensi va kolgotkalar kiradi.

Tikuvchilik sanoatida bu vazifalarni bajarish uchun avvalo texnologiyani takomillashtirish balab qilinadi. Yangi kam operatsiyali texnologiyalar yaratish tikuvchilik buyumlariga ishlov berishni takomillashtirishdagi istiqbolli yo`nalish hisoblanadi. Kiyimning (umuman tikuvchilik buyumlarining), kiyim detallari va uzellarining



konstruktsiyasida choklarniiloji boricha ko`proq kamaytirish, namlab-isitib ishlov berish usullarining vibromaniken singari bir jarayonli turlarida materiallarga ularning termoplastik xususiyati hisobiga shakil berish, biriktirish va bezash jarayonlarini birlashtirish (masalan, mag`iz, tesma qo`yishda), yelim materiallaridan keng foydalanish va h. k. ana shunday kam operatsiyali texnologiyaga kiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.Komilova, N.K.Hamroeva. Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash. T, 2003 y.
2. I.N. Litvinova, Ya.A.Shaxova. Ayollar ust kiyimini tikish. Toshkent. «O'zbekiston» 1997 y.
3. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 1994 y.
4. M.Sh.Jabborova. Tikuvchilik texnologiyasi.Toshkent. O'qituvchi. 1989 y.